

DOI: 10.5281/zenodo.15696132

Link: <https://zenodo.org/records/15696132>

## OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORINI SHAKLLANTIRISHDA DAVLAT SIYOSATINING O'RNI

*Ubaydullayev Akmal Tulkinboyevich*

*University of Business and Science moliya kafedrasi dotsenti, PhD*

[foxlisa037@gmail.com](mailto:foxlisa037@gmail.com)

+998902755786

ORCID: 0009-0000-5915-3878

*Sharibayev Yunus Soli o'g'li*

*University of Business and Science 1-bosqich magistranti*

+998990194550

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lismizmatlari bozorining hozirgi holati, uni shakllantiruvchi omillar, mavjud muammolar va rivojlanish istiqbollari o'r ganilgan. Maqolada ta'lismizmatlari bozorining milliy modelini takomillashtirish bo'yicha amaly taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ilmiy ish natijalari oliy ta'limi modernizatsiya qilish, ta'lismizmatlarining sifatini oshirish hamda ularni xalqaro standartlarga moslashtirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar.** Oliy ta'lismizmatlari bozori, davlat OTM, nodavlat OTM, Ta'lim,

### I. KIRISH

Globallashuv jarayoni, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi va demografik o'zgarishlar natijasida oliy ta'lismizmatlari bozori dunyo miqyosida keskin o'zgarishlarga uchramoqda. Ta'lismizmatlari bozori – bu nafaqat ta'lismizmatlari tizimi emas, balki qamrovli iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy omillarni o'z ichiga oluvchi murakkab tizim sifatida qaralmoqda<sup>34</sup>.

Ta'lismizmatlari bozorida shakllanayotgan raqobat muhiti, talab va taklifning nomutanosibligi, sifatsiz xizmatlar ko'rsatish xavfi, mehnat bozoridagi ehtiyoj bilan ta'lismizmatlari bozoridagi nomuvofiqliklar kabi muammolar mazkur sohaga chuqur iqtisodiy tahlil zarurligini ko'rsatmoqda<sup>35</sup>. Xalqaro tajriba esa shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lismizmatlari bozor tamoyillariga asoslangan holda tashkil qilish, ta'lismizmatlari bozoridagi muvofiqlikni oshiradi, ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantiradi.

Shu nuqtai nazardan, oliy ta'lismizmatlari bozorining milliy modelini shakllantirish, uning raqobatbardoshligini ta'minlash, raqamli va innovatsion yondashuvlarni integratsiya qilish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Ushbu mavzuni o'r ganish nafaqat ta'lismizmatlari bozoridagi muhimmastiqsizligini, balki mamlakatning uzoq muddatli barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

<sup>34</sup> Tilak, J. B. G. (2008). *Financing of education in India: Current issues and trends*. NIEPA.

<sup>35</sup> UNESCO (2021). *Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives*.

<https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000247444>

## II. ADABIYOTLAR TAHLILI

Oliy ta'lim xizmatlari bozori — zamonaviy iqtisodiy munosabatlar tizimida xizmat ko'rsatish sohasining eng muhim segmentlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar rivojlanayotgan mamlakatlarda ham, rivojlangan davlatlarda ham dolzarb masala sifatida e'tirof etilmoqda. O'zbekiston sharoitida esa ushbu sohaning tizimli tadqiq qilinishi zamonaviy islohotlar sharoitida yanada ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonlik olimlar tomonidan oliy ta'lim tizimi va uning iqtisodiy jihatlari yuzasidan bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, I. Saydaliyev oliy ta'lim xizmatlari bozorining shakllanish bosqichlari, ularning moliyalashtirilishi va raqobat muhitining rivojlanishini chuqur tahlil qiladi<sup>36</sup>. O'z navbatida, X. Abdukarimov ta'lim sohasining davlat siyosatidagi o'mni, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyatini iqtisodiy asoslar bilan bayon etgan<sup>37</sup>.

## III. NATIJALAR

Oliy ta'lim xizmatlari bozori — bu oliy ta'limga ehtiyoj bildiruvchi shaxslar va bu xizmatni taqdim etuvchi muassasalar o'rtafigi o'zaro munosabatlar, iqtisodiy talab va taklif asosida shakllanadigan murakkab tizimdir. Mazkur bozorning o'ziga xos jihat shundaki, bu yerda xizmatlar moddiy emas, balki **bilim, ko'nikma va malaka** shaklida ko'rsatiladi va ularning samarasi uzoq muddatda namoyon bo'ladi<sup>38</sup>.

Oliy ta'lim xizmatlari bozorining asosiy **tarkibiy elementlari** quyidagilardan iborat:

1. **Xizmat taqdim etuvchilar (providerlar)** – davlat oliy ta'lim muassasalari, xususiy universitetlar, xorijiy oliy o'quv yurtlari filiallari, onlayn ta'lim platformalari va qo'shimcha kasb-hunar markazlari.

2. **Xizmat iste'molchilar (talabchilar)** – abituriyentlar, talabalar, magistrantlar, doktorantlar va umrbod ta'lim konsepsiyasini qo'llovchi fuqarolar.

3. **Regulyatorlar (nazorat va muvofiqlashtiruvchi subyektlar)** – O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Akkreditatsiya agentliklari, Davlat test markazi, Oliy attestatsiya komissiyasi.

4. **Moliyalashtiruvchi tomonlar** – davlat byudjeti, homiylar, talabalarning to'lov-kontrakt mablag'lari, xalqaro donor tashkilotlar (masalan, Jahon banki, Erasmus+, USAID).

5. **Mehnat bozori subyektlari** – ish beruvchilar, kompaniyalar, kadrlar agentliklari.

Bu subyektlar o'rtafigi munosabatlar oliy ta'lim xizmatlarining shakli, mazmuni va sifati bilan chambarchas bog'liq. Ayniqsa, xizmatlar sifati – iste'molchilarning ehtiyojiga moslashtirish darajasi, o'quv dasturlarining mehnat bozoriga mosligi va raqobatbardosh kadrlar yetkazib berish salohiyatiga bog'liqdir<sup>39</sup>.

<sup>36</sup> Saydaliyev I. "Oliy ta'lim xizmatlari bozorining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari", *Iqtisodiyot va ta'lim* journali, 2021, №3.

<sup>37</sup> Abdukarimov X. "Ta'lim xizmatlarining iqtisodiy asoslari", *Ilm-fan va taraqqiyot*, 2020.

<sup>38</sup> Becker, G. S. (1993). *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education*. University of Chicago Press.

<sup>39</sup> UNESCO (2019). *Global Education Monitoring Report*. <https://en.unesco.org/gem-report/>

Oliy ta'lim xizmatlari bozori tarkibida **raqobat muhitining shakllanishi** va **diversifikatsiyalashuv** tendensiyalari kuchaymoqda. Masalan, 2020-yilga qadar O'zbekistonda 75 ta oliy o'quv yurti mavjud bo'lgan bo'lsa, 2024-yil holatiga ko'ra bu raqam 200 dan oshdi, ulardan 35 tasi xususiy va 15 dan ortig'i xorijiy oliy ta'lim muassasalari filiallaridir<sup>40</sup>. Bu esa bozorda xizmatlar sifati, narxi, ta'lim formatlari va uslublarida xilma-xillikni vujudga keltirmoqda.

Davlat darajasida ushbu bozordagi subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha qator huquqiy asoslar yaratilgan. Xususan, **Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 2-martdagи 79-sonli qarорida** oliy ta'lim xizmatlarining akkreditatsiya mezonlari, sifat baholash indikatorlari va reyting tizimlari belgilab berilgan<sup>41</sup>. Shuningdek, **2022-yil 28-yanvardagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda** ta'lim xizmatlarining mazmuni, subyektlari, ularga qo'yiladigan talablar va ularning huquqiy maqomi belgilab qo'yilgan<sup>42</sup>.

Shuningdek, mahalliy olimlar – M. R. Karimov, G. Y. Yusupova, I. S. Jo'rayev kabi tadqiqotchilar ta'lim xizmatlarining turlari, subyektlararo raqobat, hamkorlik mexanizmlari va sifat ko'rsatkichlarini o'rganib, bozor mexanizmlari asosida boshqaruv modelini taklif etishgan<sup>43</sup>. ularning fikriga ko'ra, oliy ta'lim xizmatlari bozori faoliyatini samarali yo'lga qo'yish uchun davlat, ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtaida uch tomonlama strategik hamkorlik zarur.

Oliy ta'lim xizmatlari bozorining subyektlari o'rtasidagi integratsiya darajasi oshgan sari, bu xizmatlar tizimining sifatlari, barqaror va baravar rivojlanishiga zamin yaratiladi. Bu holat O'zbekistonning ta'lim sohasida olib borayotgan islohotlarining asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, oliy ta'lim xizmatlari bozorining zamонавиј bosqichidagi yana bir muhim xususiyati – bu **raqamlashtirish** jarayonining tez sur'atlar bilan rivojlanayotganidir. Masofaviy ta'limning kengayishi, elektron resurslar, sun'iy intellekt asosidagi o'quv platformalari va big data texnologiyalaridan foydalanish – bu xizmatlarning taklif shaklini tubdan o'zgartirmoqda. O'zbekistonda "Raqamli universitet" loyihalari doirasida ko'plab oliy o'quv yurtlari o'z ta'lim jarayonini **Learning Management System (LMS)**, **Moodle**, **ZiyoNet**, va boshqa platformalar orqali tashkil etmoqda<sup>44</sup>.

Mazkur jarayon ta'lim xizmatlari bozorining tarkibiy subyektlari faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Endilikda o'quv dasturlarining mosligi va ularni amaliyatga tatbiq etish darajasi iste'molchilar tomonidan tezroq va aniqroq baholanish imkoniga ega bo'ldi. Bu esa bozorda xizmat ko'rsatuvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish zaruriyatini kuchaytirmoqda<sup>45</sup>.

<sup>40</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotlari, 2024-yil

<sup>41</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 2-martdagи 79-sonli Qarори. <https://lex.uz/docs/6312044>

<sup>42</sup> "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.01.2022-yil. <https://lex.uz/docs/5841067>

<sup>43</sup> Karimov, M. R.; Yusupova, G. Y.; Jo'rayev, I. S. (2022). *Oliy ta'lim xizmatlari bozorining shakllanishi va rivojlanish istiqbollari. "Iqtisodiyot va ta'lim" jurnali*, №4, 22–30-betlar.

<sup>44</sup> Rasulov, O. M. (2022). *Raqamli ta'lim muhiti: imkoniyatlar va muammolar*. "Ta'lim va innovatsiya" jurnali, №2, 33–37-betlar.

<sup>45</sup> UNESCO (2021). *Digital Learning and Transformation in Higher Education*. <https://unesdoc.unesco.org>

Bundan tashqari, xizmatlar ko'rsatuvchi subyektlar ichida **korporativ va sanoat buyurtmachilarining** roli ortib bormoqda. Ya'ni yirik korxonalar o'z ehtiyojlariga mos ravishda oliy ta'limga muassasalari bilan **dual ta'limga tizimi** asosida hamkorlik qilishmoqda. Masalan, "UzAuto Motors" AJ, "NAVOIYAZOT" AJ, "NEGMK" va boshqa sanoat giganti korxonalari bilan Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent kimyo-tehnologiya instituti o'rtaida ixtisoslashtirilgan amaliy ta'limga dasturlari joriy etilgan<sup>46</sup>.

Bozor subyektlari faoliyatida muhim rol o'ynaydigan boshqa qatlama bu — **xalqaro tashkilotlardir**. Masalan, Jahon banki, YUNESKO, Yevropa Ittifoqi va Osiyo Taraqqiyot Banki kabi tashkilotlar O'zbekistonda oliy ta'limga tizimini modernizatsiya qilishga yo'naltirilgan grant va texnik yordam loyihibarini amalga oshirmoqda. Bular oliy ta'limga xizmatlarining sifati, shaffofligi va xalqaro tan olinganlik darajasini oshirishga xizmat qilmoqda<sup>47</sup>.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, oliy ta'limga xizmatlari bozorini **faqat oddiy ta'limga xizmatlari almashinuvchi tizimi** deb emas, balki **iqtisodiyotni raqobatbardosh kadrlar bilan ta'minlovchi strategik sektor** deb qarash lozim. Bu esa xizmat ko'rsatuvchi va iste'molchi subyektlar o'rtaida o'zaro manfaatli va natijaga yo'naltirilgan munosabatlar tizimini shakllantirish zaruratini tug'diradi.

Oliy ta'limga xizmatlari bozori – bu faqat iqtisodiy manfaatlar to'qnashuvi emas, balki jamiyat taraqqiyotining poydevorini tashkil etuvchi strategik resursdir. Shu bois, davlat siyosati ushbu bozorning shakllanishi, barqarorligi va samaradorligida hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limga sohasini modernizatsiya qilish, sifatini oshirish, raqobatbardosh muhit yaratish borasida qator strategik hujjatlar qabul qilinmoqda.

### 1-jadval

#### Davlat siyosati hujjatlarining tahlili<sup>48</sup>

Hujjat nomi	Qabul qilingan sana	Asosiy maqsad	Bozorga ta'siri
PQ-5847-sonli Prezident qarori	2020-yil 29-oktabr	2030 yilgacha oliy ta'limga tizimini rivojlantirish	Bozorga xususiy sektorni jalb qilish, talabga asoslangan ta'limga
VMQ-377-son	2021-yil 23-iyun	Ta'limga sifatini baholash tizimini takomillashtirish	Sifatga asoslangan raqobatni kuchaytirish
"Ta'limga muassasalari reytingi" qarori	2022-yil	Reyting asosida baholash	Universitetlar o'rtaida sog'lom raqobat
Oliy ta'limga to'g'risidagi Qonun	2020-yil (yangilangan)	Erkinlik, akademik mustaqillik	Bozorda innovatsion xizmatlar ko'rsatish imkoniyati

So'nggi yillarda qabul qilingan asosiy normativ-huquqiy hujjatlar va ularning oliy ta'limga bozoriga ta'siri ko'rsatkichlari

<sup>46</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limga, fan va innovatsiyalar vazirligi, 2023-yilgi sektoral hamkorlik hisobotlari.

<sup>47</sup> Jahon banki. (2022). *Modernizing Uzbekistan's Higher Education System: Strategic Outlook*.

<https://www.worldbank.org/uz/project/highereduuuz>

<sup>48</sup> Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qarorlari bazasi asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

## 2-jadval

Davlat aralashuvi shakllari<sup>49</sup>

Nº	Asosiy yo‘nalishlar	Ta’sir shakllari	Izohlar
1	Normativ tartibga solish	- Litsenziyalash - Akkreditatsiya - Davlat ta’lim standartlari	Ta’lim sifati va yagona mezonlar asosida faoliyat yuritilishini ta’minlaydi
2	Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash	- Davlat grantlari - Subsidiyalar - Davlat buyurtmalari ajratilishi	Iqtidorli talabalarni qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy adolat tamoyillarini ta’minlaydi
3	Kadrlar siyosati	- Ustuvor yo‘nalishlarga kvotalar - Maxsus yo‘nalishlar bo‘yicha tayyorlov	Mehnat bozoriga mos kadrlar tayyorlanishini ta’minlashga xizmat qiladi
4	Xususiy sektorni rag‘batlantirish	- Nodavlat OTMlar ochilishiga ruxsat - Soliq imtiyozlari - Yer ajratish	Ta’lim bozorida raqobatni kuchaytirish va xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi

Davlat siyosatining oliy ta’lim xizmatlari bozoriga ta’sir ko‘rsatish yo‘nalishlari Jadvalda davlat siyosatining oliy ta’lim xizmatlari bozoriga ko‘rsatayotgan ta’siri to‘rt asosiy yo‘nalishda umumlashtirilgan. Har bir yo‘nalish bozor mexanizmlarining shakllanishi, xizmatlar sifatining oshishi va raqobat muhitining rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi:

1. Normativ tartibga solish – bu yo‘nalish ta’lim muassasalarini faoliyatini litsenziyalash, akkreditatsiya qilish hamda davlat ta’lim standartlari orqali me’yorlashtirishni o‘z ichiga oladi. Bu orqali oliy ta’lim sifatini nazorat qilish va yagona standartlarga muvofiqlik ta’milanadi.

2. Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash – davlat byudjeti hisobidan ajratilayotgan grantlar, subsidiyalar va davlat buyurtmalari orqali ijtimoiy himoya tizimi shakllanadi. Ayniqlsa, kam ta’milangan yoki ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlari vakillari uchun bu tizim katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, davlat buyurtmasi orqali mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan mutaxassislar tayyorlanadi.

3. Kadrlar siyosati – ustuvor va strategik sohalar bo‘yicha malakali kadrlar tayyorlash davlatning oliy ta’lim siyosatidagi ustuvor yo‘nalishlardan biridir. Bu yo‘nalishda davlat tomonidan maxsus kvotalar ajratilishi va tegishli kadrlar zaxirasining shakllantirilishi ko‘zda tutilgan.

4. Xususiy sektorni rag‘batlantirish – bozor iqtisodiyoti sharoitida ta’lim xizmatlari sifatining oshishi uchun sog‘lom raqobat muhimdir. Shu sababli davlat tomonidan nodavlat oliy ta’lim muassasalarining faoliyat yuritishi uchun huquqiy asoslar yaratilmoqda, soliq imtiyozlari va yer ajratish orqali ularning rivojlanishiga turtki berilmoqda.

<sup>49</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qarorlari bazasi asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Umuman olganda, davlat siyosati oliy ta'lim xizmatlari bozorini shakllantirish va rivojlantirishda yo'l ko'rsatuvchi va muvofiqlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Raqobatbardosh va innovatsion ta'lim tizimini yaratishda yuqoridagi yo'nalishlar davlatning strategik vositasi hisoblanadi.

#### IV. MUHOKAMA

Davlat siyosatining oliy ta'lim xizmatlari bozoriga ko'rsatayotgan ta'siri to'rt asosiy yo'nalishda umumlashtirilgan. Har bir yo'nalish bozor mexanizmlarining shakllanishi, xizmatlar sifatining oshishi va raqobat muhitining rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi:

5. Normativ tartibga solish – bu yo'nalish ta'lim muassasalarini faoliyatini litsenziyalash, akkreditatsiya qilish hamda davlat ta'lim standartlari orqali me'yorlashtirishni o'z ichiga oladi. Bu orqali oliy ta'lim sifatini nazorat qilish va yagona standartlarga muvofiqlik ta'minlanadi.

6. Moliyaviy qo'llab-quvvatlash – davlat byudjeti hisobidan ajratilayotgan grantlar, subsidiyalar va davlat buyurtmalari orqali ijtimoiy himoya tizimi shakllanadi. Ayniqsa, kam ta'minlangan yoki ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlarni vakillari uchun bu tizim katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, davlat buyurtmasi orqali mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassislar tayyorlanadi.

7. Kadrlar siyosati – ustuvor va strategik sohalar bo'yicha malakali kadrlar tayyorlash davlatning oliy ta'lim siyosatidagi ustuvor yo'nalishlardan biridir. Bu yo'nalishda davlat tomonidan maxsus kvotalar ajratilishi va tegishli kadrlar zaxirasining shakllantirilishi ko'zda tutilgan.

8. Xususiy sektorni rag'batlantirish – bozor iqtisodiyoti sharoitida ta'lim xizmatlari sifatining oshishi uchun sog'lom raqobat muhimdir. Shu sababli davlat tomonidan nodavlat oliy ta'lim muassasalarining faoliyat yuritishi uchun huquqiy asoslar yaratilmoqda, soliq imtiyozlari va yer ajratish orqali ularning rivojlanishiga turtki berilmoqda.

Umuman olganda, davlat siyosati oliy ta'lim xizmatlari bozorini shakllantirish va rivojlantirishda yo'l ko'rsatuvchi va muvofiqlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Raqobatbardosh va innovatsion ta'lim tizimini yaratishda yuqoridagi yo'nalishlar davlatning strategik vositasi hisoblanadi.

#### XULOSA

Mazkur bob doirasida olib borilgan ilmiy-nazariy tahlillar asosida shuni xulosa qilishim mumkinki, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim xizmatlari bozorining shakllanishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Bozor mexanizmlarining oliy ta'limga kirib kelishi natijasida raqobat kuchaygan, ta'lim muassasalarining samaradorlikka, sifatga va innovatsiyalarga yo'naltirilgan faoliyati izchil rivojlanmoqda.

Muallif sifatida ta'kidlaymanki, aynan davlat siyosatining maqsadli yondashuvi – normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, moliyaviy rag'batlantirish, nodavlat sektorni qo'llab-quvvatlash kabi choralar oliy ta'lim bozorida muvozanatni ta'minlash va sifatni oshirishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lif sifatini baholovchi ko'rsatkichlar (ta'lif sifati reytingi, bitiruvchilar bandligi, talabalar qoniqishi va boshqalar) bozor talablariga moslashishda muhim indikator sifatida baholanishi kerak. Bu esa ta'lif muassasalarini ichki sifat menejmentini takomillashtirishga undaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, oliy ta'lif xizmatlari bozorining raqobatbardosh, samarali va ochiq shakllanishida davlat siyosati, normativ-huquqiy muhit va ilmiy-nazariy asoslarning uzviy uyg'unligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, degan ilmiy xulosaga kelaman.

## V. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Tilak, J. B. G. (2008). *Financing of education in India: Current issues and trends*. National Institute of Educational Planning and Administration. <https://www.niepa.ac.in>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi". <https://lex.uz/docs/5841063>
3. UNESCO (2021). *Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives*. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000247444>
4. OECD (2020). *The Impact of AI on the Education Sector*. <https://www.oecd.org/education/impact-ai-education.htm>
5. QS Top Universities. (2023). *QS World University Rankings: Methodology*. <https://www.topuniversities.com>
6. Xodjayev, S. T. (2019). *Ijtimoiy xizmatlar bozorini rivojlantirishning iqtisodiy asoslari*. Toshkent: Iqtisodiyot.
7. G'ulomov, A. S. (2020). *Ta'lif xizmatlari bozorining shakllanishi va rivojlanish tendensiyalari*. "Iqtisodiyot va ta'lif" jurnali, №2, 15–20-betlar.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/5087025>
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-fevraldaggi 66-sonli qarori. "Oliy ta'lif muassasalarida ichki reyting tizimini joriy etish to'g'risida". <https://lex.uz/docs/5265061>
10. Karimov, M. R. (2021). *Oliy ta'linda raqamli texnologiyalarni joriy etishning samaradorlik omillari*. "Ilm-fan va innovatsiyalar" jurnali, №3, 45–52-betlar.
11. Schultz, T.W. (1961). *Investment in Human Capital*. The American Economic Review, 51(1), 1-17.
12. Kotler, P. & Keller, K.L. (2016). *Marketing Management*. Pearson Education.
13. Altbach, P.G., Reisberg, L., & Rumbley, L.E. (2009). *Trends in Global Higher Education: Tracking an Academic Revolution*. UNESCO.
14. Psacharopoulos, G. & Patrinos, H.A. (2018). *Returns to Investment in Education: A Decennial Review of the Global Literature*. Education Economics, 26(5), 445-458.

15. World Bank (2021). *Higher Education for Development: An Evaluation of the World Bank Group's Support.*  
<https://www.worldbank.org/en/topic/tertiaryeducation>